

**MILLIY TEXNOLOGIK TADQIQOTLAR UNIVERSITETI  
«MISIS»NING OLMALIQ SHAHRIDAGI FILIALI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.22/30.12.2019.T.98.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR  
UNIVERSITETI**

**YUSUPOV URAL SADULLAYEVICH**

**MIS ISHLAB CHIQRISH TEXNOGEN CHIQINDILARINI  
QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQRISH**

**05.02.01-Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik. Metallarga termik va bosim  
ostida ishlov berish. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi. (texnika fanlari)**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Olmaliq – 2025**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии  
(PhD) по техническим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)  
on technical sciences**

**Yusupov Ural Sadullayevich**

Mis ishlab chiqarish texnogen chiqindilarini qayta ishlash texnologiyasini  
ishlab chiqish ..... 3

**Юсупов Урал Садуллаевич**

Разработка технологии переработки техногенных отходов медного  
производства..... 21

**Yusupov Ural Sadullaevich**

Development of a processing technology for technogenic waste from copper  
production. .... 40

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 42

**MILLIY TEXNOLOGIK TADQIQOTLAR UNIVERSITETI  
«MISIS»NING OLMALIQ SHAHRIDAGI FILIALI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.22/30.12.2019.T.98.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR  
UNIVERSITETI**

**YUSUPOV URAL SADULLAYEVICH**

**MIS ISHLAB CHIQRISH TEXNOGEN CHIQINDILARINI QAYTA  
ISHLASH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

**05.02.01-Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik. Metallarga termik va bosim  
ostida ishlov berish. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi. (texnika fanlari)**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Olmaliq – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/T4433 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xasanov Abdirashid Saliyevich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xoliqulov Doniyor Baxtiyorovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Tolibov Behzod Ibrohimovich**  
texnika fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston Respublikasi Fanlar  
akademiyasi Umumiy va noorganik  
kimyo instituti**

Dissertatsiya himoyasi Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti «MISIS»ning Olmaliq shahridagi filiali huzuridagi DSc.22/30.12.2019.T.98.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashining 2025-yil «4» sentyabr soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 110101, Olmaliq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 56-uy. Tel.: (+998 70) 614-22-82, E-mail: [info@misis.uz](mailto:info@misis.uz)).

Dissertatsiya bilan Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti «MISIS»ning Olmaliq shahridagi filiali ining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ 25-39-Д raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 110101, Olmaliq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 56-uy. Tel.: (+998 70) 614-22-82.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «22» avgust kuni tarqatildi.  
(2025 yil «22» avgustdagi №30 raqamli reyestr bayonnomasi)

**F.Ya. Umarov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, t.f.d., professor

**G.S. Nutfulloyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, t.f.d., dotsent

**Sh.Sh. Zairov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda zamonaviy metallurgiya sanoatida mis toshqollarini qayta ishlash, ularning tarkibidagi rangli va nodir metallarni ajratib olish hanuz dolzarb bo'lib, yiliga 26 mln tonnadan ortiq sof mis eritib olinadi. Uni eritish, konverterlash natijasida 100 mlndan ortiq tarkibi 1% gacha bo'lgan toshqol, texnogen chiqindi hosil bo'ladi. So'nggi 20 yil mobaynida 200 mln tonnadan ortiq toshqollar qayta ishlanmay, maxsus maydonlarda saqlanmoqda. Ularning tarkibidagi mis ajratib olish va qayta ishlash zaruriyati mavjud. Bunda piro va gidrometallurgiya usulida qayta ishlash barobarida, flotatsiya usulida boyitilib misli boyitma olish, bu o'z o'rnida qo'shimcha ikkilamchi texnogen chiqindilaridan mis ajratib olinishiga olib kelsa, undan tashqari minglab gektar yerlar bo'shab ekologik sof muhit paydo bo'ladi shu kabi masalalarning yechimiga alohida e'tibor qaratish kerakligi muhim ahamiyatga ega.

Dunyoda mis ishlab chiqarish toshqollarini qayta ishlash, uning tarkibidagi misni kamaytirish, ularning fizik-kimyoviy va mineralogik tarkibini o'rganish, pech ichida va pech tashqarisida alohida toshqollardan misni ajratib olish, misli toshqollarni polimetal ma'danlarga aralashtirib flotatsiya usulida boyitish, so'ng chiqindilardan qayta ishlab nafaqat rangli va nodir metallarni ajratib olish balki temirni ham alohida mahsulot sifatida olish, elektr energiyasini va cho'yanni shar o'rniga, qattiq eritish pechi toshqollarini qo'llash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, texnogen chiqindini (xvostni) gidrometallurgiya usulida qayta ishlash texnologik sxemasini takomillashtirish, misli toshqollarni polimetal ma'danlarga aralashtirib flotatsiya usulida boyitish, po'lat sharlar va konverter toshqolida yanchilgan ma'danlarni flotatsiya usulida boyitishning texnologik ko'rsatkichlarini taqqoslash va optimal meyorini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda texnogen chiqindi hisoblangan toshqollarini qayta ishlash, kislorodli ma'shalli eritish va konverter pechidan hosil bo'lgan misli toshqollarni flotatsiya usulida qayta ishlash, boyitish va mis boyitmasi ajratib olishda, uning eng maqbul texnologik rejimlarini ishlab chiqish bo'yicha muayyan natijalarga erishishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida<sup>1</sup> «Innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun barcha yo'nalishlar bo'yicha keng imkoniyatlarni yaratish, oliy o'quv yurtlarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarini amaliyot bilan chambarchas bog'lash, innovatsion tashabbuslarni hamda tadqiqotlarni qo'llab quvvatlovchi zamonaviy mexanizmlarni tadbiiq etish...» kabi muhim vazifalar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4 oktabrdagi «2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasi «yashil» iqtisodiyotiga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi»gi PQ-4477-son, 2020 yil 15 maydagi «Toshkent viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4715-son, 2021 yil 24 iyundagi «Kon-metallurgiya sanoati

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-iyundagi PQ-5159-sonli «Kon-metallurgiya sanoati va unga bog'liq sohalarni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni.

va unga bog'liq sohalarni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-5159-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada va xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustivor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning VIII. «Yer to'g'risidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xom ashyolarni qayta ishlash)» ustivor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mis ishlab chiqarish toshqollarini qayta ishlash, uning tarkibidagi misni kamaytirish, ularning fizik-kimyoviy va mineralogik tarkibini o'rganish, pech ichida va pech tashqarisida alohida toshqollardan misni ajratib olish yoki missizlantirish borasida juda ko'p olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borib, ma'danchilik va foydali qazilmalarni boyitish faniga katta hissa qo'shib kelgan. Jumladan, chet el olimlaridan: V.P. Bistrov, A.V. Vanyukov, V.A. Vanyukov, V.Y. Zaysev, V.P. Tarasov, V.V. Mechev, V.L. Belix, I.F. Xudyakov, S.S. Naboychenko, S. Kvyatkovskiy, A.P. Snurnikov, Y.B. Shmonin, Y.P. Kupryakov va boshqa bir qancha olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar toshqollarini qayta ishlash, ularning tarkibidagi rangli va nodir metallarni ajratib olish hamda tadbiriq etish katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida toshqollarni qayta ishlashga bag'ishlangan, Shu bilan birga toshqoldagi misni missizlantirish bilan birga flotatsiya qilish bo'yicha A.A. Yusufxo'jayev, Q.S. Sanakulov, A.X. Xursanov, M.M. Yakubov, A.S. Xasanov, A.U. Samadov, B.I. Tolibov, D.B. Xoliqulov, U.M. Xalikulov, A.N. Shodiyev, S.R. Xudayarov, S.A. Abduraxmanov, T.O. Kamolov, A.A. Abduqodirov va boshqalar bajarishgan bo'lib, ularning ilmiy ishlarida Mis ishlab chiqarish toshqollarini qayta ishlash samaradorligini oshirilganini ko'rish mumkin.

Mis ishlab chiqarish toshqollarini qayta ishlash, uning tarkibidagi misni kamaytirish, ularning fizik-kimyoviy va mineralogik tarkibini o'rganish, pech ichida va pech tashqarisida alohida toshqollardan misni ajratib olish, misli toshqollarni polimetal ma'danlarga aralashtirib flotatsiya usulida boyitish, so'ng chiqindilardan piro va gidrometallurgiya usullari bilan qayta ishlab nafaqat rangli va nodir metallarni ajratib olish balki temirni ham alohida mahsulot sifatida olish, elektr energiyasi hamda ulardan samarali foydalanish juda ham dolzarb bo'lib kelmoqda.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti I.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi «Fan va taraqqiyot» Davlat unitar korxonasi ilmiy tadqiqot rejasiga muvofiq №02-2088.06.06.2012 y. «Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» AJ va «Fan va taraqqiyot» Davlat unitar korxonasi o'rtasidagi «Mis ishlab chiqarishning chiqindisiz, energiya va resurs tejankor ekologik toza texnologiyasini qo'llash» mavzusidagi va Toshkent davlat texnika universiteti №63-9845 yur «Mis eritish zavodining konverter toshqoli va aylanma materiallarini, rux zavodining klinkerini

qayta ishlash natijasida qo‘shimcha metallarni olish bilan ularni ishlab chiqarishda qo‘llash» (2021-2022 y.) mavzusidagi xo‘jalik shartnomalari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Mahalliy ikkilamchi texnogen chiqindi bo‘lgan mis eritish zavodi toshqollari va Qalmoqqir koni ma‘danlari flotatsiya usulida boyitish va hosil bo‘lgan chiqindilarni gidrometallurgiya usulida qayta ishlash texnologiyalarini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Qalmoqqir sulfidli ma‘dan va mis eritish zavodi konverter toshqollarining miqdoriy, minerologik tuzilishi va kimyoviy birikmalarini tadqiq etish;

Qalmoqqir koni sulfidli ma‘danlarini yanchishda konverter toshqollarini yanchuvchi sifatida qayta ishlash usulini qo‘llash va asoslash;

po‘lat sharlar va konverter toshqolida yanchilgan ma‘danlarni flotatsiya usulida boyitishning texnologik ko‘rsatkichlarini taqqoslash va optimal meyorini yaratish;

ma‘dan va toshqollarni flotatsiyalashda maydalovchi sharlarga bog‘liqligi, reagentlar rejimini tanlash va hosil bo‘lgan chiqindini kuydirish va tanlab eritishning amaliy omillarini asoslash;

texnogen chiqindilarni (xvostlarni) piro-gidrometallurgik qayta ishlashning texnologik va apparatlar zanjir tasvirini takomillashtirilgan sxemasini ishlab chiqish va tavsiya etish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida «Olmaliq KMK» AJ Qalmoqqir koni sulfidli ma‘dani, mis eritish zavodi konverter toshqoli va undan chiqqan suyuq texnogen chiqindi «xvost»lar va toshqollarning mineralogik va kimyoviy tarkibi, ularda misning saqlanish formalari, asosiy oksid va sulfid birikmallari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** Qalmoqqir koni sulfidli ma‘danlarini konverter toshqollarini po‘lat shar o‘rniga yanchish, ularni taqqoslash, yanchilgan xom ashyoni flotatsiya usulida boyitish va piro-gidrometallurgiya usulida chiqindini qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishini bajarishda zamonaviy nazariy va amaliy kompleks tadqiqot usullaridan, tahlilning fizik va kimyoviy usullari, jumladan, nodir va rangli metallar gidro- va pirometallurgiya sanoatining chiqindilarini qayta ishlash bo‘yicha elektron mikroskop va rentgen fazaviy tahlil, mass-spektroskopiya tahlili (ICP-MS), fotokolorimetriya, atom-absorbsion tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

mis eritish zavodi toshqollarida sulfid suspenziyasining shakllanishi, uning koalesensiyasi, kristallanish strukturasi tuzilishining harorat ta‘sirida o‘zgarishi ilmiy asoslangan;

toshqol yanchilish darajasining oshishiga va energiya sarfining 30% ga kamayishiga termik kuchlanish, toshqol tarkibidagi asosiy birikmalarning kristallanishi va sovutish tezligi ta‘sir etishi aniqlangan;

konvereter toshqollari bilan yanchilgan ma‘danlarni flotatsiya usulida boyitishning apparatlar zanjir sxemasi yaratilgan va ilmiy asoslangan;

toshqol va ma‘danlarni aniqlangan rejimda boyitishda hosil bo‘lgan chiqindilarni kuydirish va tanlab eritishning maqbul rejimlari ishlab chiqilgan;

toshqollarni flotatsiyalashdan so‘ng hosil bo‘lgan suyuq chiqindilarni

gidrometallurgiya usulida qayta ishlash texnologik zanjir sxemasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

alohida siklda yanchish va flotatsiyalash va nihoyat toshqolni ma'dan bilan o'zaro 1:1 nisbatda yanchish va flotatsiyalash jarayonida mis tarkibi 2,14 % tashkil etib, chiqindida uning tarkibi 0,20 % ni tashkil etdi, ajratib olish darajasi 82,86%-88,5 % ni hamda 2-Mis boyitish fabrikasida madanlarni yanchish uchun shar o'rniga qattiq toshqolning ishlatilishi natijasida tegirmonning ishlab chiqarish unumdorligini 5,6 % ga kamaytirib bir vaqtning o'zida elektr energiya sarfini 20,5 % ga iqtisod qilishi asoslangan;

hosil bo'lgan chiqindi avvaliga pirometallurgiya usulida kuydirilib, so'ng sulfat kislotada tanlab eritildi va unda mis, temir alohida ajratib olinib takomillashtirilgan texnologiyasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** Olingan natijalarning ishonchliligi muallif tomonidan avval laboratoriya sharoitida o'tkazilgan ilmiy eksperimentlar, keyin esa olingan natijalarni muhokama qilish, eng maqbul texnologik rejimni tanlash, kombinatning tajriba-sinov fabrikasining yarim sanoat miqyosida o'tkazilgan eksperimentlari, natijalarning ishonchliligini tasdiqlovchi tahlil natijalari, shuningdek zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullari, ishlab chiqarish sinovlari natijalari bo'yicha «Olmaliq KMK» AJning akkreditatsiyadan o'tgan markaziy tahlil laboratoriyasining tadqiqotlari bilan asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yanchilgan toshqolni sulfidli ma'dan bilan birgalikda flotatsiyalashning samaradorligi olingan mahsulotlarning mineralogik, kimyoviy tarkiblarini o'rganish va flotatsion boyitishda reagentning sarfi maydalik darajasi va eng asosiysi misning boyitmaga ajralib chiqish darajasining yuqoriligi hamda unga sarflangan elektr energiya sarfining kamligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati tegirmon aylanish tezligini oshirish orqali uning ishlab chiqarish unumdorligi sezilarli darajada oshganligi, flotatsiya jarayonida ma'dan va toshqol 1:1 nisbatda qo'shib boyitilganda misni boyitmaga ajratib olish darajasi 82,86% tashkil etilishi hamda flotatsion boyitishning chiqindisi kuydirilgandan so'ng, gidrometallurgik usulda qayta ishlanib, tarkibidagi qoldiq mis va temir alohida mahsulotlarga ajratib olish imkoniyati ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Mis ishlab chiqarish texnologiyasini qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqish ilmiy asoslash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

konverter toshqollari bilan yanchilgan ma'danlarni flotatsiya usulida boyitishning apparatlar zanjir sxemasi Mis eritish zavodi konverter toshqolini flotatsiya usulida kombinatning 2-Mis boyitish fabrikasida boyitish jarayonida qo'llanilgan («Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» AJning 2024 yil 27 iyundagi SL-0555-son ma'lumotnomasi). Natijada, misni ajratib olish darajasi 2-3,5 % ga oshgan va maydalash jarayonida elektr energiya sarfi 20,5% ga tejalgan iqtisodiy samara olish imkonini bergan;

Mis ishlab chiqarish texnogen chiqindilarini qayta ishlash texnologiyasi Mis eritish zavodi konverter toshqolini flotatsiya usulida kombinatning 2-Mis boyitish fabrikasida boyitish jarayonida joriy etilgan («Olmaliq kon-metallurgiya kombinati») AJning 2024 yil 27 iyundagi SL-0555-son ma'lumotnomasi). Natijada, 85,93 foiz bo'lgan 14,7 foizli Cu boyitmasini olish, ikklamchi chiqindida Cu usuli 0,33 foizni tashkil etish va mis, temir ajratib olish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta konferensiyalarda, shu jumladan 2 respublika ilmiy-amaliy va 4 xalqaro anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyasining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta respublikada va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 114 betni tashkil etadi.

#### **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi asoslangan, maqsadi va vazifalari shakllantirilib, tadqiqot obyekti va predmeti ko'rsatilgan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keltirilgan, ularning ishonchliligi asoslangan, natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, ishlanmalarni amalga oshirish natijalari, ishni sinovdan o'tkazish natijalari va nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi, shuningdek tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining «**Mis ishlab chiqarishda xom ashyo va texnogen chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalarining zamonaviy holatini nazariy va adabiyotlar tahlili**» deb nomlangan birinchi bobida jahon miqyosida mis ishlab chiqarishning asosiy qismi pirometallurgik usullarga to'g'ri kelishi, eritish jarayonida katta hajmda misli toshqollar hosil bo'lishi va ularni qayta ishlash masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilingan. Dunyo bo'yicha mis ishlab chiqarish hajmi va unga mos ravishda toshqollar chiqishi to'g'risida statistik ma'lumotlar keltiriladi. Mavjud toshqollarni qayta ishlashning dolzarbligi, ularda misdan tashqari oltin, kumush va boshqa qimmatbaho metallar saqlanishi va ularni iqtisodiy va ekologik nuqtai nazardan qayta tiklash zarurligi asoslangan.

Mavjud ilmiy manbalar asosida toshqollarning mineralogik va kimyoviy tarkibi, ularda misning saqlanish formalari, asosiy oksid va sulfid birikmalarining yo'qotilish sabablari ko'rsatilgan. Ayrim mamlakatlarda konverter va kislorodli pech toshqollarini qayta ishlash tajribalari, misni ajratib olish samaradorligi, texnologik sxemalar va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar qiyosiy tahlil qilingan.

Dunyoda va MDH hududida toshqollarni qayta ishlash uchun pirometallurgik, gidrometallurgik, elektrometallurgik va flotatsion texnologiyalar qo'llanilish tendensiyalari, ularning afzallik va kamchiliklari, laboratoriya va sanoat

miqyosidagi natijalar ko'rsatib o'tilgan. Xususan, toshqollarni sekin sovutish, maydalash, flotatsiya orqali mis va boshqa metallarni boyitish, shuningdek, toshqollarni sement ishlab chiqarish va qurilish materiallariga yo'naltirish kabi yo'nalishlar alohida ko'rib chiqilgan.

Dissertatsiya ishining «**Mis ma'danlari va toshqollarini maydalash, flotatsiya usulida boyitish va gidrometallurgiya jarayon tajribalarini o'tkazish usuli, tadqiqot obyektlarini asoslash**» deb nomlangan ikkinchi bobida -

Qalmoqqir koni ma'danlari va mis eritish toshqollarini maydalash, yanchish va flotatsiya usulida boyitish tajribalarini o'tkazish usullari va tadqiqot obyektlari asoslangan, so'ng ularni maydalash koeffitsiyentini aniqlash metodikalari ishlab chiqilgan va ketma-ketlikda keltirilgan.

Qalmoqqir ma'dani va konverter toshqolini fazali hamda kimyoviy tahlillari 1 va 2-jadvallarda keltirilgan.

### 1-jadval

#### Ma'dan va toshqolni kimyoviy tahlili natijalari

Tarkibi, %	Toshqol	Madan
Mis (Cu)	2,02	0,5
Rux (Zn)	0,15	-
Molibden (Mo)	-	0,016
Temir (Fe)	48,45	6,85
Oltinugurt (S)	0,5	1,27
Alyuminiy uch oksidi (Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub> )	1,44	17,72
Kremniy ikki oksidi (SiO <sub>2</sub> )	27,74	53,57
Kalsiy oksidi (CaO)	1,56	0,84
Magniy oksidi (MgO)	0,22	3,03

Tajribalarni o'tkazishda, ma'dan va toshqollarning asosiy fizik-kimyoviy xususiyatlari, jumladan, tegirmonda yanchish sharoitlari, moddiy tarkibi, mineralogik tuzilishi va flotatsiya jarayoni uchun kerakli reagentlar miqdori va konsentratsiyasi aniqlab chiqildi. Bunda tegirmon aylanish tezligi, yanchuvchi jismning to'ldirish koeffitsiyenti va bo'laklar o'lchami kabi asosiy texnologik parametrlar optimallashtirildi.

### 2-jadval

#### Mis birikmasini fazali tahlil natijalari


Namuna	Mutloq, %				Nisbiy, %			
	Cu umumiy	Cu birlamchi	Cu ikkilamchi	Cu oksidli	Cu umumiy	Cu birlamchi	Cu ikkilamchi	Cu oksidli
Toshqol	2,07	0,11	1,5	0,46	100	5,32	72,48	22,2
Madan	0,54	0,42		0,12	100	77,9		22,1

Toshqoldagi mis birikmasining fazali tahlili 3-jadvalda keltirilgan.


### 3-jadval

#### Toshqoldagi mis birikmasining fazali tahlili


Mis miqdori, %				Misni taqsimlanishi, %			
Umumiy	I-sulfid	II-sulfid	oksid	Umumiy	I-sulfid	II-sulfid	oksid
2,89	0,46	2,23	0,20	100	14,3	76,70	9,00



**1-rasm. 40 marta kattalashtirilgan toshqol. Bog'lovchi massasi shisha asosli**



**2-rasm. Toshqol tarkibida yaxshi tiklangan mis shteyni borligini ko'rsatadi va u misli-qizil rangga ega**



**3-rasm. Bornit (1), xalkozin (2), kovellin (3). Kattalashtirilgan 100<sup>x</sup>**


Ma'dan va toshqollarni barcha va alohida flotatsiya usulida boyitish metodikasi, maydalash samaradorligi, flotoreagentlarning suyultirish uchun uning miqdori va konsentratsiyalari qanday tayyorlash usullari, formulalar orqali hisoblash keltirilgan. Ushbu rasm va jadvallardan ma'lumki mis birikmasi asosan sulfid bilan sun'iy xalkozin, kovellin va bornit holida joylashgan. Bunda mis birikmasi yaxshi flotatsiya qilinadi.

Dissertatsiyaning «**Mis ma'danlarini maydalashda yanchuvchi sifatida konverter toshqollarini qayta ishlash**» deb nomlangan uchinchi bobida konverter toshqollarini yanchuvchi sifatida qo'llash imkoniyatlarini o'rganish maqsadida o'tkazilgan laboratoriya va yarimsanoat tajriba natijalari batafsil tahlil qilingan. Zamonaviy boyitish fabrikalarida yanchuvchi vositalar sifatida odatda po'lat sharlar ishlatiladi, biroq ularni konverter toshqollari bilan almashtirish texnik va iqtisodiy nuqtai nazardan dolzarb masala hisoblanadi.

**4-jadval**

**Qayta hosil bo'lgan - 0,074 mm, kg/l\*soat bo'yicha tegirmonlarning solishtirma ishlab chiqarish unumdorligi**

To'lish koeffitsiyenti, %	Tegirmonlarning aylanish tezligi, kritikdan % bo'yicha			
	75	85	95	110
50	0,065	0,078	0,086	0,087
55	0,075	0,086	0,110	0,101
65	0,090	0,110	0,119	0,112
70	0,090	0,110	0,115	0,094
Po'lat sharlar 50	0,120	-	-	-



**4-rasm. Tegirmonning solishtirma ish unumdorligining aylanish tezligi va tegirmonga mahsulotlar to'ldirish darajasi bog'liqligi.**

Dastlabki tajribalar tegirmonlarning aylanish optimal tezligini aniqlash va yanchuvchi sifatida konverter toshqollarini ishlatish samaradorligini baholashga qaratildi. Natijalarga ko'ra, tegirmonning ishlab chiqarish unumdorligi konverter toshqollari qo'llanilganda po'lat sharlar

bilan solishtirganda 1,5–5,6 % kamayadi, biroq elektr energiya sarfi 17–20,5 % ga

kamayadi. Bu esa energiya tejankorlik nuqtai nazaridan yuqori samaradorlikni ko'rsatadi.

Grafikdan ko'rinib turganidek tegirmonlarning aylanish optimal tezligini aniqlash bo'yicha to'ldirish koeffitsiyenti: *1-40 %; 2-55 %; 3-60%, 4-65%* va tegirmonlar aylanishining optimal tezligi kritikdan 90+96 % va to'lish koeffitsiyenti 62 % ni tashkil etdi. Yarimsanoat sinovlari markazdan yuklanadigan tegirmonlarda amalga oshirildi. Tegirmonga yuklanadigan toshqollarning granulometrik tarkibi va massasi aniqlandi, natijada toshqollar hajmi tegirmon hajmining 53,8 % ni tashkil etdi.

### 5-jadval

#### Konverter toshqoli yordamida ma'danni yanchishda smenalardagi tegirmonning ishlash ko'rsatkichlari (tegirmonning aylanish tezligi kritikka nisbatan 85,0 %)

Smena	Tegirmonning ish. chiq unum, t/soat			Quyilma qattiqqa nisbatan zichligi, %	Quyilmada -0,074mm o'lcham bo'yicha chiqishi %	Elektr energiya sarfi, kVt-soat/t	
	Ma'dan bo'yicha	-0,074 mm sinf bo'yicha	Tegirmon hajmi bo'yicha			Ma'dan	-0,074 mm sinf bo'yicha
1	1,88	1,18	0,28	32	61,1	26,6	46,1
2	1,37	0,87	0,24	29	51,0	27,8	57,0
3	1,89	0,89	0,20	30	50,2	31,9	62,1
4	2,28	1,27	0,35	31	60,0	23,0	47,9
5	2,27	1,29	0,28	32	51,2	22,6	47,0
6	2,39	1,25	0,31	30	52,5	23,4	45,0
7	2,46	1,28	0,32	33	54,2	19,3	36,2
8	2,43	1,59	0,39	29	66,9	18,5	28,9
O'rtacha	2,12	1,20	0,29	30	55,8	24,1	46,2

Keltirilgan jadvaldagi o'rtacha natijalarni taqqoslash shuni ko'rsatdiki, ham ma'dan bo'yicha, ham qayta yanchilgan 0,074 mm sinf bo'yicha ishlab chiqarish unumdorligi tegirmonlarni kritikka nisbatan aylanish sonini 80 dan 100 % ga oshirish orqali ko'payadi.

### 6-jadval

#### Po'lat sharlar bilan yanchilgan ma'danni flotatsiyalash siklining ko'rsatkichlari

Smena №	Reagentlar sarfi g/t			Boyitma chiqishi, %	Mis ulushi, %			Misni ajratib olish darajasi, %
	Natriy sulfid	Ksantat	Piridin		Ma'dan	Boyitma	Chiqindi	
1	100	110	130	10,55	1,70	13,80	0,32	84,6
2	140	120	120	9,50	1,60	14,00	0,30	82,3
3	105	90	95	9,55	1,50	13,00	0,30	82,1
4	140	100	100	9,25	1,40	14,40	0,25	86,3
5	115	85	105	12,00	1,80	13,50	0,30	84,5
6	130	105	110	11,00	1,85	15,65	0,25	88,7
O'rtacha	121	101	110	10,3	1,64	14,05	0,28	84,7

Elektr energiyasi diapazonda tadqiq qilinayotgan kritikka nisbatan 80 % dan 85,0 % tezliklarda ko‘tariladi, unda elektr energiya sarfi 38,1 Kvt/t atrofida bo‘lsa, 90,0% da tushadi va 100 gacha ko‘tarilganda elektr energiya sarfi yana oshadi. Bundan bilib turibmizki, optimal samaradorlik tezligi kritikka nisbatan 90,0 + 99 % oraliqda yotadi, unda elektr energiya sarfi 46,3 Kvt/t ortishi kuzatildi.

Po‘lat sharlar va konverter toshqollari yordamida yanchilgan ma‘danlarning flotatsiya natijalari o‘rganildi.

**7-jadval**

**Konverter toshqollari bilan yanchilgan ma‘danni flotatsiyalash siklining ko‘rsatkichlari**

Smena №	Reagentlar sarfi g/t			Boyitma chiqishi, %	Mis ulushi, %			Misni ajratib olish darajasi, %
	Natriy sulfid	Ksantat	Piridin		Ma‘dan	Boyitma	Chiqindi	
1	85	80	63	13,5	2,30	15,16	0,36	86,30
2	150	100	100	7,3	2,10	27,68	0,24	87,10
3	120	120	130	12,50	2,20	14,70	0,26	89,6
4	125	115	140	14,20	2,15	13,20	0,21	89,9
<b>O‘rtacha</b>	120	103	107	11,87	2,18	17,68	0,26	88,2

**8-jadval**

**Konverter toshqollari hamda po‘lat sharlar yordamida yanchilgan ma‘danni flotatsiyalash sikli**

Mahsulotlar nomlanishi	Po‘lat sharlar bilan yanchish			Konverter toshqol bilan yanchish		
	Chiqish, %	Mis ulushi, %	Ajratib olish darajasi, %	Chiqish, %	Mis ulushi, %	Ajratib olish darajasi, %
<b>Ma‘dan</b>	100	1,70	100	100	2,25	100
<b>Dag‘al boyitma</b>	19,02	9,15	95,2	19,24	11,41	97,1
<b>Asosiy flotatsiya chiqindisi</b>	96,55	0,33	18,5	95,70	0,34	15,9
<b>Nazorat flotatsiya sanoat mahsuloti</b>	7,73	1,02	4,6	5,58	1,31	3,6
<b>Tozalash chiqindisi</b>	7,84	3,32	15,1	9,36	4,25	19,4
<b>Tayyor boyitma</b>	11,18	14,20	86,3	9,88	16,25	88,0
<b>Ikkilamchi chiqindisi</b>	88,82	0,26	13,7	90,12	0,22	12,0

Yuqoridagi ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, ikkala holatda ham mahsulotlarning chiqishi bir xilligicha qolmoqda. Faqatgina e‘tibor bersak, konverter toshqoli yordamida yanchilgan ma‘dan flotatsiya qilishdan chiqqan mahsulotda mis ulushi bir qancha ko‘proqni ko‘rsatmoqda.

Misni ajratib olish darajasi konverter toshqollari bilan yanchilganda 88,5%, po‘lat sharlar bilan yanchilganda esa 86,3% ni tashkil etdi. Boyitmadagi mis tarkibi mos ravishda 16,25% va 14,20% ni tashkil qildi. Flotatsiya jarayonidagi reagentlar sarfi va mahsulot chiqishi amalda bir xil bo‘lib, konverter toshqollari yordamida mis minerallarining yuzasini yaxshiroq ochish mumkinligi tasdiqlandi.

Dissertatsiyaning «Konverter toshqoli va Qalmoqqir koni madanlarini boyitish va piro, gidrometallurgik jarayonlar asosida mis olish texnologiyasi» deb nomlangan to‘rtinchi bobida Olmaliq kon-metallurgiya kombinati konverter toshqollari va Qalmoqqir koni ma’danlarini flotatsiya usulida boyitish texnologiyasi va texnogen chiqindilarni gidrometallurgik qayta ishlash bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqot natijalari yoritilgan. Qalmoqqir konidan keltirilgan mis ma’dani ikki bosqichli maydalashdan o‘tkazilib, fraksiyasi -0,2 mm gacha tayyorlandi. Olingan namunalarning granulometrik va mineralogik tahlillari amalga oshirildi. Toshqol va ma’danlarning kimyoviy tarkibi va mis birikmalarining fazali taqsimoti jadvallarda ko‘rsatildi (masalan, mis asosan sulfidli va metallik holda uchraydi).


Laboratoriya flotamashinada toshqol-ma’dan aralashmasining (1:1 nisbatda) flotatsiya tajribalari olib borildi. Reagent sifatida butil ksantogenat (60–70 g/t) va qarag‘ay moyi qo‘llanildi. Flotatsiya muhiti pH=7,1–7,2 darajasida tabiiy holda saqlandi. Yanchuvchi sifatida po‘lat sharlar va konverter toshqollari alohida va aralash holda o‘rganildi.

Natijalarga ko‘ra:

-yanchuvchi sifatida faqat po‘lat sharlar: misni ajratib olish darajasi 86,3%, boyitmadagi mis – 14,2%.

-yanchuvchi sifatida konverter toshqollari: misni ajratib olish 88,0%, boyitmadagi mis – 16,25%.

-aralash yanchuvchi (50% po‘lat shar + 50% toshqol): misni ajratib olish 87,9%, boyitmada mis 15,9%.



Izoh: x-Konverter toshqoli, o-Qalmoqqir ma’dani

**5-rasm. Konverter toshqollari va Qalmoqqir koni mis ma’danining maydalik sinfiga qarab chiqishining yanchish vaqtiga nisbati. Flotatsiyalash davomiyligi – 7 min**

Bunda yanchuvchi sifatida toshqollardan foydalanish energetik xarajatlarni kamaytirib, misni ajratib olish samaradorligini oshirgani qayd etildi.

**9-jadval**

**Toshqolni flotatsiyalash jarayonida misni ajratib olishda butil ksantogenati va SSM-2 reagentlar sarfiga bog‘liqlik natijalari**


Mahsulotlar nomlanishi	Chiqishi, %	Mis ulushi, %	Misni ajr olish daraja, %	Butil ksantogenat sarfi, g/t	SSM-2 sarfi, g/t	Asosiy flotatsiya pH muhiti
Mis boyitmasi	6,17	26,39	69,63	30		
Misli oraliq mahsulot	9,17	4,14	16,27	+	-	7,1
Chiqindi	84,66	0,39	14,10	20		
Toshqol	100	2,33	100			
Mis boyitmasi	5,72	27,72	67,7	50		
Misli oraliq mahsulot	9,84	4,8	20,07	+	-	7,1
Chiqindi	84,44	0,34	12,23	40		
Toshqol	100	2,35	100			
Mis boyitmasi	5,83	27,48	71,05	70		
Misli oraliq mahsulot	9,92	4,10	18,1	+	-	7,2
Chiqindi	84,25	0,29	10,85	60		
Toshqol	100	2,25	100			
Mis boyitmasi	13,74	14,76	85,93	100		
Misli oraliq mahsulot	4,92	1,32	2,74	+	-	6,9
Chiqindi	81,34	0,33	11,33	70		
Toshqol	100	2,36	100			
Mis boyitmasi	7,15	24,28	70,4			
Misli oraliq mahsulot	7,75	4,27	13,4	-	30	6,9
Chiqindi	85,1	0,47	16,2		+	
Toshqol	100	2,47	100		20	
Mis boyitmasi	9,47	19,41	76,67			
Misli oraliq mahsulot	6,55	2,96	8,08	-	50	6,9
Chiqindi	83,98	0,44	15,25		+	
Toshqol	100	2,40	100		30	
Mis boyitmasi	10,7	17,64	78,66			
Misli oraliq mahsulot	5,5	2,76	6,34	-	70	6,9
Chiqindi	83,8	0,43	15,0		+	
Toshqol	100	2,4	100		40	

9-jadvalda butil ksantogenatning va SSM-2 sarfining tajriba natijalari keltirilgan. Tajriba sharoitlari bundan avvalgi ishlab turgan seriyada kabi jarayonni olib boriladi. Toshqol massasi 97 % ining yanchilish sinfi — 0,074 mm bo‘ldi.

Texnogen chiqindilarni gidrometallurgik qayta ishlash tajribalari shuni ko‘rsatdiki flotatsiyadan keyingi texnogen chiqindilar sun‘iy fayalit, magnetit va boshqa silikati minerallardan tashkil topgan bo‘lib, tarkibida mis va boshqa



qimmatbaho komponentlar saqlanadi. Chiqindilar kuydirilib, sulfat kislotasi eritmasi bilan tanlab eritildi.

Tajribalar natijasida kuydirish tajribalari natijalaridan kelib chiqib, jarayon uchun eng maqbul harorat 600°C ekanligi aniqlandi kuydirish vaqti esa 1 soat etib belgilandi.




**6-rasm.**  
Texnogen chiqindi tarkibidagi fayalit birikmasi parchalanish darajasining jarayon haroratiga bog‘liqligi


Mis oksidlarining sulfat kislotasi eritmasida eruvchanlik koeffitsiyenti tanlab eritish jarayonining davomiyligi, harorati va erituvchi konsentratsiyasiga bog‘liq. Ushbu parametrlarni hisobga olgan holda kuyindi tarkibidan misni imkon qadar to‘liq ajratib olish maqsadida tanlab eritish tajribalari har xil harorat, vaqt davomiyligi va sulfat kislotasi konsentratsiyasida amalga oshirildi. Mis oksidi sulfat kislotasi ishtirokida quyidagi reaksiya asosida eritmaga o‘tadi:



Sulfat kislotasi eritmasi konsentratsiyasi 80 g/l, harorat 60°C, ishlov berish vaqti 1 soatda misning 80–85% eritmaga o‘tkazildi, eritmadagi mis natriy sulfidi bilan cho‘ktirilib, mis sulfidi shaklida qayta tiklandi. (6-8 rasmlar).




**7-rasm.** Misning eritmaga o‘tish darajasining sulfat kislotasi konsentratsiyasiga bog‘liqligi



**8-rasm.** Misning eritmaga o‘tish darajasining jarayon haroratiga bog‘liqligi

Tanlab eritish jarayoni tugagach mis tarkibli eritma cho‘kmadan filtrlash yo‘li bilan ajratildi. Filtrlash jarayoni kislotabardosh qotishmadan tayyorlangan 0,4 m<sup>3</sup> hajmli nutch filtrda, vakuum nasos yordamida amalga oshirildi. Olingan eritmaga eritmadagi misning miqdoriga 1,25 barobar ekvivalent miqdorda natriy sulfidi

qo‘shib eritmadagi mis ionlari sulfid holatida cho‘ktirildi. Cho‘ktirish jarayoni aralashtirgichli reaktorda 30 daqiqa davomida amalga oshirildi.




Mis ionlari eritmadan to‘liq cho‘ktirilgach eritma dekantatsiyalandi hamda cho‘kma quritilib, misning miqdori bo‘yicha tahlil qilindi.

Mazkur texnologiya (9-rasm) bo‘yicha ma‘danni o‘zini qayta ishlash bilan solishtirilganda tegirmonning ishlab chiqarish unumdorligi 29,6 % kamaydi, konverter toshqolini mis ma‘dani bilan o‘zaro 1:1 nisbatda aralashtirib ikki bosqichli qayta ishlash sinov tajriba natijalari quyidagicha ko‘rsatkichlar olindi: Konverter toshqol + ma‘dan aralashmasi tarkibida misning ulushi 2,32 % bo‘lganda misni boyitmaga ajratib olish darajasi 75,64 % bo‘lgan 19,2 % boyitma olishga muvaffaq bo‘lindi. Chiqindidagi misning ulushi esa 0,25 % tashkil qildi.

Iqtisodiy jihatdan eng maqbul va taklif etilayotgan variant esa sulfidli mis ma‘danlarini yanchish uchun konverter toshqollarini qo‘shib birga qayta ishlash hisoblanadi, biroq uni alohida monoseksiyada flotatsiyalash, konverter toshqolini esa alohida flotatsiya qilish sanoat miqyosida tavsiya etiladi.

Mis ishlab chiqarishda hosil bo‘lgan chiqindini gidrometallurgiya usulida qayta ishlash tajribalarining moddiy texnik balansi ishlab chiqildi va kuydirish tanlab eritish, filtrlash kabi jarayonlar alohida hisoblab chiqildi, unda misning ajratib olish darajasi 93,5 % ni tashkil etdi.



**9-rasm. Mis ishlab chiqarishda texnogen chiqindilarni qayta ishlashning zanjirli texnologik uskunalari sxemasi**

## XULOSA

Mis ishlab chiqarish texnogen chiqindilarini qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqish mavzusidagi texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Laboratoriya hamda yarimsanoat tajribalari konverter toshqollarini flotatsiya usulida qayta ishlash mumkinligini isbotlab berdi.

2. Yanchish jarayonida po'lat sharlar o'rniga konverter toshqollarini qo'llash shuni ko'rsatdiki, bunda tegirmonning aylanish optimal tezligi kritik tezlik bilan bir xil bo'ldi. Ushbu tezlikda tegirmonning ishlab chiqarish unumdorligi po'lat sharlar bilan yanchishga qaraganda ko'proq ya'ni 94,4 % yetdi, qolaversa elektroenergiya sarfini ham 20,5 % ga qisqartirishga erishildi. Yanchish siklida konverter toshqolini sarfi umumiy ma'dan massasining 3 % ini tashkil qildi.

3. Tajriba sinov davrida quyidagi texnologik ko'rsatkichlar qayd etildi: Tarkibida 1,70 % Cu bo'lgan ma'danni po'lat sharlar bilan yanchilganda tarkibida 14,20 % Cu bo'lgan boyitma olindi, bunda boyitmaga misni ajratib olish darajasi 86,3 % tashkil etdi. Ikkilamchi chiqindida esa misning ulushi 0,26 % ko'rsatdi.

4. Konverter toshqoli bilan ma'danni yanchilganda olingan aralashma tarkibida mis 2,25 % tashkil etdi, uni flotatsiya qilinganda tarkibida 16,25 % Cu bo'lgan boyitma olindi. Ajratib olish darajasi 88,5 % bo'ldi. Chiqindida esa Cu ulushi 0,22 % tashkil etdi, bu o'z o'rnida gidrometallurgiya usulida misni va temirni alohida ajratib olish texnologiyasi takomillashtirildi.

Alohida siklda konverter toshqollarini qayta ishlash sinovlari shuni ko'rsatdiki, ularni ratsional qayta ishlash sxemasi har bir oraliq siklda flotatsiyalanadigan ikki bosqichli yanchishni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy jihatdan eng maqbul va taklif etilayotgan variant esa sulfidli mis ma'danlarini yanchish uchun konverter toshqollarini qo'shib birga qayta ishlash hisoblanadi.

5. Tajriba sanoat miqyosida o'rganilganligi bo'yicha tarkibida 2,36 % Cu bo'lgan toshqoldan misni ajratib olish darajasi 85,93 % bo'lgan 14,7 % boyitma olish imkonini berdi. Ikkilamchi chiqindida Cu ulushi 0,33 % tashkil etdi.

Ushbu holatda tegirmonning ishlab chiqarish unumdorligi 38 % kamayib, elektroenergiya va po'lat sharlar sarfi mos ravishda 92 % va 62 % ortadi. Ksantogenat sarfi ham 1,5 barobar ko'payadi.

6. Konverter toshqolini mis ma'dani bilan o'zaro 1:1 nisbatda aralashtirib ikki bosqichli qayta ishlash sinov tajriba natijalari quyidagicha ko'rsatkichlar olindi: Konverter toshqol + ma'dan aralashmasi tarkibida misning ulushi 2,32 % bo'lganda misni boyitmaga ajratib olish darajasi 75,64 % bo'lgan 19,2 % boyitma olishga muvaffaq bo'lindi. Chiqindidagi misning ulushi esa 0,25 % tashkil qildi. Bunda madanni o'zini qayta ishlash bilan solishtirilganda tegirmonning ishlab chiqarish unumdorligi 29,6 % kamaydi, elektroenergiya sarfi esa 58,8 %, po'lat sharlar sarfi ham 48,5 % ko'paydi shuningdek, ksantogenat sarfi 1,7 martaga oshdi, shuning uchun ham shar o'rniga toshqol qo'llanildi.

7. 600 °C da 1 soat kuydirilgandan so‘ng hosil bo‘lgan kuyindi 80 g/l H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> eritmasida 60 °C da 1 soat tanlab eritildi. Misning 85 % gacha qismi eritmaga o‘tdi, undan keyin Na<sub>2</sub>S eritmasi bilan cho‘ktirilib, qo‘shimcha mis keki olindi.

8. Mis ishlab chiqarishda hosil bo‘lgan chiqindini piro-gidrometallurgiya usulida qayta ishlash tajribalari natijasida umumiy zanjirli texnologik uskunalar sxemasi yaratildi. Jarayon ketma-ketligi va uning moddiy texnik balansi ishlab chiqildi va past haroratda kuydirish, sulfat kislotada tanlab eritish so‘ng filtrlash kabi jarayonlar alohida hisoblab chiqildi, unda misning ajratib olish darajasi 93,5 % ekanligi nazariy va amaliy isbotlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.22/30.12.2019.Т.9 8.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ФИЛИАЛЕ НАЦИОНАЛЬНОГО  
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОГО ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО  
УНИВЕРСИТЕТА «МИСИС» В Г. АЛМАЛЫК**

---

**НАВОИЙСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ГОРНО-  
ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**ЮСУПОВ УРАЛ САДУЛЛАЕВИЧ**

**РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПЕРЕРАБОТКИ  
ТЕХНОГЕННЫХ ОТХОДОВ МЕДНОГО ПРОИЗВОДСТВА**

**05.02.01-Материаловедение в машиностроении. Литейное производство.  
Термическая обработка и обработка металлов давлением. Metallургия черных,  
цветных и редких металлов» (технические науки)**

**АВТОРЕФЕРАТ**

**диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам**

**Алмалык – 2025**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №В2025.1. PhD/Т4148.

Диссертация выполнена в Навоийском государственном горно-технологическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (русском, узбекском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.tdtu.uz](http://www.tdtu.uz)) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

<b>Научный руководитель:</b>	<b>Хасанов Абдирашид Салиевич</b> доктор технических наук, профессор
<b>Официальные оппоненты:</b>	<b>Холикулов Дониёр Бахтиерович</b> доктор технических наук, профессор <b>Толибов Бехзод Иброхимович</b> доктор технических наук, доцент
<b>Ведущая организация:</b>	<b>Институт общей и неорганической химии</b> <b>Академии наук Республики Узбекистан</b>

Защита диссертации состоится «4» сентября 2025 г. в 14<sup>00</sup> на заседании Научного совета DSc.22/30.12.2019.Т.98.01 при Национальном исследовательском технологическом университете «МИСИС» в городе Алмалык. Адрес: 110101, г. Алмалык, ул. Амира Темура, 56. Тел.: (+99870) 614-22-82, e-mail: [info@misis.uz](mailto:info@misis.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Алмалыкского филиала Национального исследовательского технологического университета «МИСИС» (зарегистрирована под № 25-39-Д). Адрес: 110101, г. Алмалык, ул. Амира Темура, 56. Тел.: (+998 70) 614-22-82.

Автореферат диссертации разослан «22» августа 2025 года.  
(протокол реестра рассылки №30 от «22» августа 2025 года).

**Ф.Я. Умаров**  
Председатель Научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
д.т.н., профессор

**Г.С. Нутфуллоев**  
Ученый секретарь Научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
д.т.н., доцент

**Ш.Ш. Заиров**  
Председатель Научного семинара при Научном  
совете по присуждению ученых степеней,  
д.т.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (Phd))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире переработка медных шлаков, извлечение из них цветных и редких металлов в современной металлургической промышленности по-прежнему актуальна, ежегодно выплавляется более 26 миллионов тонн чистой меди. В результате её плавки и конвертирования образуются более 100 миллионов тонн шлаков, техногенных отходов, содержащих до 1% меди. За последние 20 лет более 200 млн тонн шлаков остаются переработанными и хранятся на специальных площадках. В связи с этим возникла необходимость извлечения и переработка меди из них. При этом, наряду с пиро- и гидрометаллургической переработкой, необходимо уделить особое внимание на решение таких вопросов, как получение медного концентрата путем флотации, что приведёт к извлечению меди из вторичных техногенных отходов и позволит освободить тысячи гектаров земель и создать экологически чистую среду.

В мире ведутся научные исследования по переработке медеплавильных шлаков, снижению содержания меди в них, изучению их физико-химического и минералогического состава, извлечению меди из отдельных шлаков внутри и вне печи, обогащения меди из отвальных шлаков методом флотации путем смешивания их с полиметаллическими рудами, последующей переработке отходов не только для извлечения цветных и благородных металлов, но и для получения железа в качестве отдельного продукта, использованию твердых шлаков плавильных печей вместо чугуновых шаров при измельчении руд. В связи с этим особое внимание уделяется совершенствованию технологической схемы гидрометаллургической переработки техногенных отходов (хвостов), флотационному обогащению медных шлаков путем смешивания их с полиметаллическими рудами, сравнению технологических показателей флотационного обогащения руд, измельченных стальными шарами и конвертерными шлаками и определению оптимальных режимов.

В республике достигнуты определенные результаты по переработке шлаков кислородно-факельной плавки, флотационного обогащения шлаков конвертирования медных штейнов с извлечением меди в концентрат, разработке оптимальных технологических режимов переработки техногенных отходов. В Указе Президента Республики Узбекистан определены такие важные задачи, как: «Создание широких возможностей для реализации инновационных проектов по всем направлениям, тесное увязывание научно-исследовательских работ, проводимых в высших учебных заведениях, с практикой, внедрение современных механизмов поддержки инновационных инициатив и исследований....»

